



Qo'qon DPI

ILMIY XABARLAR

ISSN: 3030-3958

№ 4/2025

PRONUNCIATION CHALLENGES ARE COMMON AMONG LANGUAGE LEARNERS <i>Kulahmedova Gulnora Abdurahimovna</i>	1456
PRAGMATIC MEANING AND COMMUNICATIVE STRATEGIES IN THE SPEECH OF DETECTIVE CHARACTERS. A CASE STUDY OF ARTUR CONAN DOYLE <i>Shoymardanova Maftuna Uktamovna</i>	1460
QORAQALPOQ TILINING DIALEKTOLOGIK MATERIALLARINIMUSTAQL ISHLARDA O‘RGANISH <i>Kaypnazarova Miyrixan Kalmuratovna</i>	1465
SAMARQAND ZARGARLIK LEKSIKASI TARIXI <i>Shukurova Hafiza Sayfieva</i>	1472
ЗАРОЖДЕНИЕ РОМАНТИЗМА В ЭПОХУ БАЙРОНА <i>Темирова Дилором Кайимовна, Панжикулов Муроджон Бахром угли</i>	1478
ILMIY FANTASTIKA JANRINING PAYDO BO‘LISHI VA JANRIY XILMA-XILLIGI <i>Safarova Zilola Tolibovna, Jurayeva Sitara Ubaydullo qizi</i>	1482
TURIZM ATAMASINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI VA UNING TARAQQIYOTI <i>To‘lanov Sobitjon Xudoberdi o‘g‘li</i>	1488
NAVOIY LIRIKASIDA DUNYO OBRAZI TALQININING BADIY-USLUBIY JIHATLARI <i>Shoirakhon Khujaeva</i>	1495
STIVEN KINGNING IJODIY USLUBI VA BADIY KONSEPSIYASI <i>Ochilov Ulug‘bek Sayfulloyevich</i>	1504
NEMIS TILSHUNOSLIGIDA ILOVALI ELEMENTLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI <i>Bektemirov Zohid Nodirovich</i>	1513
O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA URUSH MAVZUSINING O‘RGANILISHIGA DOIR <i>Xolmatov Oybek Umarjon o‘g‘li</i>	1518
ОБРАЗ ЖЕНЩИНЫ В МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «ФАУСТ» И. В.ГЁТЕ) <i>Сафарова Зульфия Каримовна, Мустафоев Бобур Нодирали угли</i>	1523
THE RELEVANCE OF COMPARATIVE STUDY OF THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF LATIN AND GREEK MEDICAL TERMS AND THEIR ROLE IN THE FIELD OF MEDICINE <i>Esanova Maftuna Bakhodirovna</i>	1527
ZAMONAVIY INGLIZ TILIDA MIFOLOGIK ARXETIPLAR VA ULARNING FUNKSIONAL MOHIYATI <i>Axmedova Shaxnoza Ravshanbek qizi</i>	1532
СТИЛИСТИЧЕСКИЕ И СИНТАКСИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ (НА МАТЕРИАЛЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ Н.Н.НОСОВА) <i>Буранова Жамила Алиевна, Халилова Мадина Мейли кизи</i>	1536
PRAGMATIK MO‘LJAL VA KONTEKST MUNOSABATI MOSLASHUVI <i>Shodikulova Aziza Zikiryayevna, Nuraliyeva Ozoda Norboyevna</i>	1540
ЗАГАДКИ И ПОСЛОВИЦЫ КАК ОТРАЖЕНИЕ НАРОДНОЙ МУДРОСТИ	1544

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 4-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

UDK 830-2

ILMIY FANTASTIKA JANRINING PAYDO BO‘LISHI VA JANRIY XILMA-XILLIGI

Safarova Zilola Tolibovna

Buxoro Davlat Universiteti dotsenti

Jurayeva Sitara Ubaydullo qizi

Buxoro Davlat Universiteti magistranti

z.safarova@umail.uz

+998 90 710 57 77

Annotatsiya. Ilmiy fantastika XIX asrda mustaqil adabiy janr sifatida paydo bo‘lganidan beri sezilarli darajada rivojlandi. Ushbu maqola ilmiy fantastika janriga kirib kelgan yangi estetik va strukturaviy o‘zgarishlar shuningdek, janrning intertekstuallik, haqiqatning nisbiyligi va o‘zgarmas an‘analar bilan aloqador elementlar yordamida boyib, yangicha ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishini tahlil qiladi. Unda postmodernizm ilmiy fantastika janrining o‘ziga xos tematik va struktural chegaralarini kengaytirganini, uni yanada murakkab, intellektual va o‘z-o‘zini anglash imkoniyatiga ega bo‘lgan janrga aylantirganini yoritib berishga harakat qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ilmiy fantastika, postmodernizm, Amerika adabiyoti, kiberpank, metafikshin, distopiya.

Аннотация. Научная фантастика, оформившись в XIX веке как самостоятельный литературный жанр, претерпела значительную эволюцию. Настоящая статья посвящена анализу новых эстетических и структурных трансформаций внутри жанра, а также исследованию того, каким образом научная фантастика обогатилась посредством интертекстуальности, идеи относительности истины и обращения к устойчивым культурным традициям. Особое внимание уделяется влиянию постмодернизма, расширившего тематические и формальные границы жанра, что превратило научную фантастику в более сложное, интеллектуально насыщенное и склонное к саморефлексии литературное пространство.

Ключевые слова: Научная фантастика, постмодернизм, американская литература, кибберпанк, метафикция, антиутопия.

Abstract. Since its emergence in the 19th century as an independent literary genre, science fiction has undergone significant evolution. This article analyzes the new aesthetic and structural changes that have entered the genre of science fiction, as well as the way in which the genre has been enriched and manifested in new forms through elements related to intertextuality, the relativity of truth, and unchanging traditions. Special attention is given to the

influence of postmodernism, which has expanded the thematic and formal boundaries of the genre, transforming science fiction into a more complex, intellectually rich, and self-reflective literary space.

Keywords: Science fiction, postmodernism, American literature, cyberpunk, metafiction, dystopia.

KIRISH

Ilmiy fantastika – fantastika janrining ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, odatda ilg‘or va kelajak texnologiyalari, jumladan, rivojlangan fan va texnika, koinotni tadqiq etish, vaqt bo‘ylab sayohat, parallel olamlar hamda yerdan tashqari hayot kabi innovatsion g‘oyalarni o‘z ichiga oladi. U fanning turli jihatlarini, shu jumladan, insoniyatning taxminiy yangi kashfiyotlarga yoki ularning oqibatlariga bo‘lgan munosabatlarini o‘rganishi mumkin.

Bugungi kunda ilmiy-fantastika shunchaki ko‘ngilochar janr emas, balki, jamiyatning nuqsonlarini ochib beruvchi, muammolar yechimini topishga undovchi hamda fan doirasida kutilmagan g‘oyalarni ilgari suruvchi janr sifatida kitobxonni “hayratga” soladi, hayotga o‘zgacha nigoh bilan boqishga chorlaydi.

Shu nuqtayi nazardan, mashhur olim Karl Sagan ilmiy fantastikaning ahamiyati xususida quyidagicha fikr bildiradi:

“Ilmiy fantastikaning eng katta afzalliklaridan biri shundaki, u o‘quvchi uchun noma’lum yoki unga yetib bo‘lmaydigan bilimlarning kichik bo‘laklari, ishoralari va iboralarini yetkazishi mumkin.”[1]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Darhaqiqat, ilmiy fantastika nafaqat o‘quvchiga yangi bilim va tushuncha beradi, balki uning taffakkur doirasini kengaytirishga ham xizmat qiladi. Ushbu janrda yaratilgan asarlar yangi dunyoni kashf etishga, shuningdek, insonni cheksiz xayolot olamiga, yangi texnologiyalar, galaktikalararo sayohatga olib chiqib, inson kelajagiga oid yangi va oldin ko‘rilmagan kelajak tasvirini beradi.

O‘.D.Saidaxmedovna hamda D.H.Quvvatovalarning “Jahon adabiyoti terminlarining izohli lug‘ati”da “fantastika” ning yunoncha “taxayyul san’ati” degan so‘zdan olingani ta’kidlanadi va bu janrga shunday ta’rif keltiriladi:

“Fantastika haqiqatda mavjud bo‘lmagan, xayol va tasavvur kuchi bilan yaratilgan obrazli tasvir yoxud shunday tasvirga asoslangan badiiy asarlar jami. Ilm-fan taraqqiyoti natijasida ilmiy fantastika yuzaga keldi.”[2]

Tadqiqotchilarning fikricha, jahon adabiyotida J.Vern va G.Uells o‘z asarlari bilan ilmiy fantastika janriga asos solishgan. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida esa bu janrda ijod qilgan yozuvchilar sifatida X.To‘xtaboyev, T.Malik, H.Shayxovlar nomlari tilga olinadi.

Ilmiy fantastika – bu haqiqiy yoki to‘qima fan va texnologiyalarning jamiyat yoki alohida shaxslarga ta’sirini o‘rganuvchi adabiyot janridir. Yulduzlararo sayohatlardan tortib sun’iy intellekt, distopik jamiyatlar va parallel olamlar tasvirigacha bo‘lgan keng qamrovli janr bo‘lgani bois, uning umumiy tavsifini berish qiyinchilik tug‘diradi.

Ilmiy fantastikaning yana bir atoqli vakillaridan biri Ayzek Azimov janrni “*insoniyatning ilm-fan va texnologiya rivojiga bergan munosabatini aks ettiruvchi adabiyot sohasi*” deb ta’riflaydi.[3] Uning yondashuvi ilmiy fantastikani nafaqat kelajak tasavvuri yoki begona sivilizatsiyalar bilan uchrashuv, balki texnologik o‘zgarishlarga inson va madaniyatning qanday moslashishi bilan ham bog‘laydi. Aldous Huxleyning “Ajoyib yangi dunyo” asari bunga yorqin misol bo‘la oladi – unda ongni o‘zgartiruvchi farmatsevtika va genetik muhandislik jamiyatni barqarorlik evaziga shaxsiy xususiyatlaridan voz kechishga olib keladi. Ushbu hikoyalar ilmiy fantastikaning tub mohiyati insonning texnologik o‘zgarishlarga moslashish jarayoni ekanini ko‘rsatadi.

Amerika ilmiy fantastikasi haqida so‘z borar ekan, u mustaqil janr sifatida ilk bor 1926-yilda Hugo Gernsbek *Amazing Stories* jurnaliga asos solganida shakllana boshlagan.[4] Ilgari Germaniyada ilmiy-fantastik nashrlar chiqqan bo‘lsa-da, *Amazing Stories* faqat ilmiy fantastika uchun bag‘ishlangan birinchi ingliz tilidagi jurnal edi. Gernsbek ilmiy haqiqatga asoslangan hikoyalarni targ‘ib qilgan bo‘lsa-da, ushbu jurnalda ilmiy asosga ega bo‘lmagan, ammo qiziqarli fantastik hikoyalar ham chop etilgan. Uning nashrlari asosan “gadget fiction” (texnik innovatsiyalar bilan bog‘liq hikoyalar) deb atalib, yangi texnologik ixtirolar natijasida yuzaga keladigan voqealarni tasvirlagan.[5]

Ilmiy fantastika janri turli yo‘nalish va uslublarni o‘zida jamlagan va har biri o‘ziga xos mavzu va muammolarni qamrab oladi. Ayrim asarlar fazoda sodir bo‘ladigan janglar va sarguzashtlarni tasvirlasa, boshqalari genetika va biotexnologiya orqali inson tabiatining o‘zgarishini ko‘rsatadi. Shuningdek, zamonaviy ilmiy fantastika atrof-muhit va sun‘iy intellekt mavzularini ham faol o‘rganadi. Shu orqali yozuvchilar nafaqat ilmiy yutuqlarni, balki ularning ijtimoiy oqibatlarini ham keng ko‘lamda yoritadilar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ilmiy fantastika yo‘nalishlari orasida kiberpank yo‘nalishi alohida ajralib turadi. Kiberpank janrining keng tarqalishi va rivojlanishi 1960-1970-yillardagi “Yangi to‘lqin” harakatiga borib taqaladi. Filip K. Dik, Rojer Zelazni, Jeyms Grem Ballard, Harlan Ellison kabilar kiberpank janri rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shgan va uni yuqori bosqichga olib chiqqan yozuvchilar qatorida tilga olinadi. Tomas Misho o‘zining “Ilmiy fantastika va siyosat: Kiberpank ilmiy fantastikasi siyosiy falsafa sifatida” nomli maqolasida kiberpank janrini zamonaviy siyosiy falsafa sifatida talqin qilib, kiberpank yo‘nalishiga quyidagicha ta’rif beradi:

“Kiberpank yo‘nalishida sun‘iy intellekt, kibertexnologiyalar kabi ilg‘or ilmiy-texnik yutuqlar aksar hollarda jamiyatdagi inqiroz, distopik muhit yoki axloqiy tanazzul fonida bayon etiladi”. [6]

Filip K. Dikning “Androidlar elektr qo‘ylarni orzu qiladimi?” asari Tomas Mishoning distopik ta’rifiga to‘liq mos keladigan asarlardan biri bo‘lib, unda Androidlar va insoniyatning o‘rtasidagi chegara xiralashishuvi, shuningdek, androidlar o‘zlarini hayotda insonlardek muhim deb hisoblashga harakat qilishi natijasida jamiyatda muammolar yuzaga kelgani tasvirlanadi. Shu tarzda, Dik androidlarning hayoti va ruhiy holati insonlarga yaqinlashishini ko‘rsatadi va

bu distopik jamiyatni yaratadi. Sun‘iy intellektning va virtual dunyoning rivojlanishi va uning boshqa mavjudotlar bilan bo‘ladigan o‘zaro aloqalari distopik muhitni yaratib, asarda “hayot” va “yashash” tushunchalari sun‘iy va haqiqiy bo‘lib, odamlar va androidlar o‘rtasidagi munosabatlar yangi savollarni keltirib chiqaradi.

Shu bilan birga, kiberpank janrida sun‘iy intellekt va kibertexnologiyalar markaziy o‘rinda turib, unda ko‘pincha distopik kelajak, ijtimoiy tanazzul, va megakorporatsiyalarning hukmronligi tasvirlanadi. Asosiy qahramonlar esa yakkalangan, ijtimoiy chetlatilgan, g‘ayrioddiy “antiqahramonlar” bo‘ladi.

Kiberpank atamasi ilk bor Bryus Betxening “Kiberpank” nomli qisqa hikoyasida ishlatilgani ta’kidlangan bo‘lsa-da, ushbu janrni ommalashtirgan asoschilardan biri sifatida Uilyam Gibson tilga olinadi. Uning “Neyromant” romani kelajakdagi texnologiyalar, sun‘iy intellekt, virtual haqiqat va hakerlik kabi mavzularni yoritib, kiberpank janrining shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ilmiy fantastika janrining yana bir yo‘nalishi “steampunk” – kiberpankga qarshi harakat sifatida paydo bo‘lgan. Boris Nevskiy va Mixail Popov o‘z maqolalarida ta’kidlaganidek, *“kiberpankdan farqli o‘laroq, stimpunk real yoki hech bo‘lmaganda shartli ravishda qabul qilinadigan texnologiyalarga asoslangan bo‘lib, ya’ni qurilma asosi bug‘dan iborat. Aynan shu xususiyat janrga uning nomini bergan”*. [7]

Shuningdek, manbalarda ko‘rsatilishicha, stimpunk yo‘nalishida yozilgan asarlar asosan XIX asr oxiri va Viktoriya davridan ilhom oladi. Ular bug‘ energiyasining keng qo‘llanilishi natijasida shakllangan texnologik taraqqiyot, san‘at va hunarmandchilik kabi xususiyatlarni o‘zida mujassam etadi. Shu nuqtayi nazardan, Jyul Vernning “Suv ostiga 80000 kilometr” asari stimpunk yo‘nalishining ilk namunalaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Asarda “Nautilus” suvosti kemasi orqali ilg‘or texnologiyalar va o‘sha davr ilm-fanining uyg‘unligi tasvirlangan.

Ilmiy fantastika janrida kiberpankdan kelib chiqqan yana bir muhim yo‘nalish – biopank bo‘lib, unda insonni genetik jihatdan o‘zgartirish, biotexnologiyalarning salbiy va xavfli oqibatlarini, shuningdek, ularni ijtimoiy boshqarish vositasi sifatida ishlatish kabi mavzular ko‘tariladi. David Pulverning “GURPS Bio-Tech” asarida aytilganidek, *“... u genetik muhandislikni, biotexnologiyalarni va sun‘iy biologiyani o‘rganuvchi yo‘nalish”* hisoblanadi. [8]

D.Pulver tasvirlaganidek, biopank asarlarining muhim belgilaridan biri bu “qora klinika”lar – ya’ni, noqonuniy tajribalar olib boriladigan yashirin laboratoriyalardir. Bu joylarda odam organizmiga genetik manipulyatsiyalar, sintetik biologik qo‘shimchalar kiritiladi yoki insonni yangi biologik shaklga aylantirishga harakat qilinadi. Biopankda tasvirlangan bunday klinikalar, odatda, megakorporatsiyalar yoki avtoritar hukumatlar nazorati ostida ishlaydi va ularda inson huquqlari, shaxsiy daxlsizlik yoki axloqiy me’yorlar inobatga olinmaydi. Paul Di Filipponing “Ribofunk” to‘plami ushbu yo‘nalishning yorqin namunasi bo‘lib, u – “ribosoma” (genetik kodni oqsillarga aylantiruvchi hujayra qism) va “funk” (kuchli, betartib ritmga ega musiqiy janr) so‘zlarining uyg‘unligidan hosil bo‘lgan. Ushbu asarlarda insoniyatning

texnologik taraqqiyoti ortidan kelgan axloqiy inqirozlar, boshqaruvning shafqatsizligi va oddiy insonlarning biologik tajriba obyekti sifatida ko‘rilishi kabi dolzarb mavzular ochib beriladi. “Ribofunk” orqali Di Filippo biotexnologiyani cheksiz imkoniyatlari fonida vujudga keladigan yangi, lekin xavfli ijtimoiy tuzumlarni ochib beradi.

Ilmiy fantastikaning keng tarqalgan janrlaridan yana biri — kosmik opera bo‘lib, unda syujet odatda koinot miqyosida kechadi, markazda esa qahramonlik, urushlar, sarguzashtlar va dramatik vaziyatlar bo‘ladi. Jumladan, Devid G.Hartvell va Ketrin Kreymer o‘zlarining “Kosmik opera renessansi” nomli to‘plamida kosmik operani *“rang-barang, dramatik, katta ko‘lamdagi sarguzasht bo‘lib, odatda ijobiy ohangda yozilgan, qahramon markazda turadigan hamda fazo yoki boshqa sayyoralarda kechadigan voqelik”* sifatida ta’riflaydilar.[9]

Zamonaviy kosmik operaning yorqin namunalaridan biri — Frank Herbertning “Dune” asaridir. Ushbu asarda nafaqat fazodagi sarguzashtlar, balki ekologik, diniy va siyosiy murakkabliklar ham chuqur yoritilgan. Bundan tashqari, kosmik opera janrining rivojida Ayzek Azimovning o‘rni alohida e’tiborga loyiq. Uning “Koinot oqimlari” asari kosmik opera janriga xos elementlarga boy bo‘lib, unda yirik galaktik imperiyalar o‘rtasidagi siyosiy mojaro, odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy tengsizlik va kosmik makonda yashashning murakkab ijtimoiy-siyosiy oqibatlari yoritiladi. Asarda Trantor imperiyasi kabi markazlashgan galaktik davlatlar tasvirlanadi, ular boshqa sayyoralarning siyosiy va iqtisodiy hayotiga aralashadi. Asar bosh qahramoni – xotirasini yo‘qotgan olim – yirik imperiyalar o‘rtasidagi sirli siyosiy mojaroning markaziga tushib qoladi.

Xullas, bu asarda kosmik opera janrining asosiy belgisi bo‘lgan – yirik siyosiy voqealar, galaktik miqyosdagi mojarolar va insoniyat taqdirini belgilovchi texnologik-ijtimoiy masalalar uyg‘un holda yoritilgan.

XULOSA

Shunday qilib, ilmiy fantastika – bu shunchaki kelajak haqida bashorat beribgina qolmay, u inson tafakkuri va texnologiya o‘rtasidagi abadiy bahs-munozaralarni yorituvchi janr hamdir. XIX asrda tug‘ilgan bu janr avvaliga ilm-fan mo‘jizalarini tasvirlashga yo‘naltirilgan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan u insoniyat taqdiri va haqiqatning nisbiyligi haqida o‘y yuritishga undovchi maydonga aylandi. Bugungi kungacha o‘zgarishda davom etayotgan ilmiy fantastika janrining turli yo‘nalish va oqimlari zamonaviy ilm-fan va texnologiyani ijtimoiy va axloqiy oqibatlarini muhokama qiladi, insoniyatning kelajagi haqida turli xil nuqtayi nazarlarni ifoda etadi. Har bir yo‘nalish o‘ziga xos xususiyatlari orqali o‘quvchini fikr yuritishga undaydi va ilmiy fantastikaning insoniyat va uning kelajagi bilan bog‘liq chuqur va keng qamrovli jihatlarini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sagan, Carl. “Growing up with Science Fiction”. – The New York Times, 1978. – P. 15-20.

2. O‘rayeva D.S., Quvvatova D.H. “Jahon adabiyoti terminlarining izohli lug‘ati”. – Toshkent: “Navro‘z”, 2019. – B.52.
3. Asimov, Isaac. “How Easy to See the Future!”. – Natural History, 1975. – P. 92–94.
4. Taormina, Agatha. “A History of Science Fiction”. – Northern Virginia Community College, 2005. – P. 1–12.
5. Pohl, Frederik. “The Day After Tomorrow”. – Galaxy Science Fiction, 1965. – P. 4–7.
6. Michaud T. “Science fiction and politics: Cyberpunk science fiction as political philosophy”. – University of South Carolina Press, 2008. – P. 65–77.
7. Невский Б., Попов М. “Стимпанк: что это такое?”. – Мир фантастики, 2006. – Стр. 3.
8. Pulver, David L. “GURPS Bio-Tech”. – Steve Jackson Games, 1998. – P. 102.
9. Hartwell, David G., Cramer, Kathryn. “The Space Opera Renaissance”. – New York, NY: Tor Books, 2006. – P. 20.